

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA MULTIMEDIANING
AHAMIYATI

Muhammadxonov Bilolxon Bahodir o'g'li

Namangan shahar 4-son tehnikumi "Tabiiy Gumanitar va

Maxsus fanlar kafedrası" o'qituvchisi

Tel: +998913530823

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalar, xususan multimedia vositalarining :kompyuterlar, planshetlar, ta'lim dasturlari, animatsiyalar, audio-hikoyalar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Maqolada multimedia bolalarning bilim olishi, kognitiv qobiliyatlari, til rivojlanishi, ijodiy va ijtimoiy-emosional sohalaridagi ijobiy ta'siri bilan birga, haddan tashqari va nazoratsiz foydalanishning salbiy oqibatlari tahlil qilinadi.*

Abstract: *This article examines the impact of modern technologies, in particular multimedia tools: computers, tablets, educational programs, animations, audio stories, on the development of preschool children. The article analyzes the positive impact of multimedia on children's learning, cognitive abilities, language development, creative and socio-emotional areas, as well as the negative consequences of excessive and uncontrolled use.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается влияние современных технологий, в частности мультимедийных средств: компьютеров, планшетов, образовательных программ, анимации, аудиосказок, на развитие детей дошкольного возраста. Анализируется положительное влияние мультимедиа на обучение, когнитивные способности, развитие речи, творческую и социально-эмоциональную сферы детей, а также негативные последствия чрезмерного и неконтролируемого использования.*

Kalit so'zlar: *multimedia, maktabgacha ta'lim, bola, pedagog, kognitiv qobilyat, mustaqil fikrlash, ijodkorlik.*

Keywords: *multimedia, preschool education, child, teacher, cognitive ability, independent thinking, creativity.*

Ключевые слова: *мультимедиа, дошкольное образование, ребенок, учитель, когнитивные способности, самостоятельное мышление, креативность.*

Zamonaviy texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanib borayotgan davrida maktabgacha ta'lim yosh davrida tarbiyalanuvchilarga ta'lim berishning turli xil interaktiv usul va metodlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodning ta'lim tarbiyasida turli xil vositalardan foydalangan holatda xususan: multimedia vositalari hozirgi kunda ommalashib bormoqda. Maktabgacha yosh bolalar uchun multimedia vositalarining ahamiyati juda katta, chunki ular bolalarning rivojlanishida qiziqarli va samarali ta'lim vositasi sifatida ishlaydi.



Maktabgacha yosh davrida multimedia vositalari – bu kuchli ta'lim va tarbiya vositasi bo'lib, uning samaradorligi butunlay pedagog va ota-onalarning mediasavodxonligiga bog'liq. Multimedia vositalari o'quv jarayonini jozibador va interfaol qilishda rangli tasvirlar, harakat va tovushlar bolalarning diqqatini jamlashga, murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli qilib berishga yordam beradi. Maktabgacha yosh davri da bolalarning kognitiv rivojlanishni, masala yechish, tasniflash, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi interfaol o'yinlar va vazifalar orqali tarbiyalanuvchilarda idrok qilish, xotira, diqqat, fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Audio-kitoblar, qo'shiqlar va o'quv dasturlari yangi so'zlar, grammatik tuzilmalar va talaffuzni o'rgatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolaning ijodkorlik va tasavvurini rivojlantirishda raqamli rasm chizish, musiqiy asboblarda o'ynash, oddiy animatsiyalar yaratish imkoniyatlari ularda zamonaviy usullar orqali ta'lim jarayonini samarali qilishga va badiiy ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi. Turli mavzulardagi multimedia dasturlari bolalarning dunyo haqidagi tasavvurini boyitadi. Bolalar erta yoshdan texnologiyalarga moslashadi va kompyuter savodxonligini oshiradi.

Multimedia vositalaridan foydalanilganda va ular bilan ishlashda pedagog va ota-onalar quyidagi qoidalarga rioya qilishi muhim sanaladi:

- ❖ Maktabgacha yoshdagi bolalar multimediya bilan kuniga 20-30 daqiqadan ortiq vaqt o'tkazmasligi kerak
- ❖ Ota-onalar va tarbiyachilar bolalar uchun mos va sifatli kontentni tanlashi zarur.
- ❖ Multimedia an'anaviy o'yinlar, kitob o'qish va jismoniy faoliyat bilan muvozanatlangan bo'lishi kerak.

Multimediya maktabgacha ta'limda samarali vosita bo'lishi bilan birga, bolalar hayotida faqat qo'shimcha vositadir. Bola rivojlanishi uchun real dunyodagi tajribalar, ijtimoiy munosabatlar va an'anaviy o'yinlar asosiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Haddan tashqari va noto'g'ri foydalanish oqibatida bolalarda uzoq vaqt davomida harakatsiz o'tirish ko'z

salomatligi, to'g'ri posturaning shakllanishi va umuman sog'liq muammolariga olib kelishi.mumkin. Bundan tashqari,o'yinchoqlar, tabiat va tengdoshlar bilan an'anaviy o'yinlarning ahamiyatining pasayishiga sabab bo'ladi. Agar multimedia faqat bir tomonlama ma'lumot oqimi sifatida ishlatilsa, bolaning faol izlanish, tajriba o'tkazish va o'z kuchi bilan topish qobiliyati rivojlanmay qolishi mumkin. Yosh avlodga mos bo'lmagan yoki haddan tashqari tez-sur'atli kontent asabiylilik, uyqusizlik va hissiyotlarni boshqarish qiyinchiligini keltirib chiqarishi tabiiy holat va so'nggi vaqtlarda yoshlar orasida ommalashgan kasalliklardan biri sanaladi. Maktabgacha yosh davrida multimedia vositalari – bu kuchli ta'lim va tarbiya vositasi bo'lib, uning samaradorligi butunlay pedagog va ota-onalarning mediasavodxonligiga bog'liq. Maqolada multimedia yordamida o'qitishning aniq muddatlari, tanlanadigan kontentning sifat va mazmuni, virtual va haqiqiy tajribani muvozanatlashtirishning ahamiyati ta'kidlanadi. Multimedia an'anaviy o'yin va o'qitish usullarini almashtirish emas, balki ularni mazmunan boyitish va to'ldirish uchun qo'llanilishi kelgusi faoliyatning samarali ta'minlanishiga asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1."Ilk qadam" davlat maktabgacha ta'lim dasturi
- 2."Zamonaviy multimedia vositalari yordamida bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish".
3. The Role of Interactive Multimedia in Early Childhood Education".
4. "Maktabgacha ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish"O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi.

Internet manbaalari:

- 1.Pedagogika.uz
- 2.Ziyonet
- 3.Geogle Scholar